

O'ZBEKISTON-GERMANIYA DIPLOMATIK MUNOSABATLARI: HOZIRGI RIVOJLANISH VA ISTIQBOLLAR

Fayzullayeva Sevara Siddiq qizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti 1-bosqich talabasi

Xudoyberganova Dilnoza

Ilmiy rahbar: Siyosatshunoslik kafedrası o'qituvchisi

fayzullayevas987@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18051396>

Annotatsiya

Bugungi kundagi jahon hamjamiyatida faol tashqi siyosat olib borayotgan O'zbekiston Respublikasining Yevropaning madaniy, ilg'or hamda zamonaviy diplomatiyasiga ega mamlakati bo'lgan Germaniya bilan ikki tomonlama munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishining tahliliga bag'ishlangan. Tadqiqotda diplomatik aloqalarning o'rnatilishi, siyosiy muloqot, savdo-iqtisodiy hamkorlik, madaniy aloqalar hamda zamonaviy davrdagi yuqori darajadagi tashriflar asosiy yo'nalishlar sifatida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, Germaniya va O'zbekiston hamkorligining huquqiy asoslari yoritishga qaratilgan.

Kalit so'zlar. Ikki tomonlama diplomatiya, tashqi siyosat, xalqaro hamkorlik, Germaniya diplomatiyasi, aloqalar.

Аннотация. Данный тезис посвящён анализу формирования и развития двухсторонних отношений между Республикой Узбекистан, проводящей активную внешнюю политику в современном мире, и Германией, страной в Европе с развитой, современной и культурной дипломатией. В исследовании рассматриваются установление дипломатических связей, политический диалог, торгово-экономическое сотрудничество, культурные контакты, а также визиты высокого уровня в современную эпоху как основные направления. Тезис направлен на освещение правовых основ и практического значения сотрудничества между Германией и Узбекистаном.

Ключевые слова: двусторонняя дипломатия, внешняя политика, международное сотрудничество, дипломатия Германии, отношения.

Abstract. This thesis is dedicated to analyzing the formation and development of bilateral relations between the Republic of Uzbekistan, which pursues an active foreign policy in today's global community, and Germany, a European country with advanced, modern, and culturally rich diplomacy. The study examines the establishment of diplomatic relations, political dialogue, trade and economic cooperation, cultural exchanges, and high-level visits in the contemporary period as the main areas of focus. The thesis aims to highlight the legal foundations and practical significance of cooperation between Germany and Uzbekistan.

Keywords: bilateral diplomacy, foreign policy, international cooperation, German diplomacy, relations.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, xalqaro hamjamiyat bilan faol integratsiyalashuvni boshlab, ko'pgina mamlakatlar bilan ikki tomonlama hamda ko'p tomonlama faol diplomatik aloqalarni yo'lga qo'ydi. Germaniya Federativ Respublikasi O'zbekistonning mustaqilligini 1991-yil 31-dekabr sanasida tan olgandan so'ng, ikki mamlakat o'rtasidagi o'zaro ishonch va do'stona diplomatik aloqalarning yangi bosqichlari boshlandi. Keyinchalik, 1992-yil 6-mart sanasida rasmiy diplomatik aloqalar o'rnatildi [1] hamda 1993-

yil O'zbekistonning G'arbiy Yevropadagi birinchi elchixonasi Bonn shahrida faoliyat yuritishni boshladi. Bir necha missiyalar, rasmiy delegatsiyalar yuborildi va hamkorlik dasturlari o'z faoliyatlarini yuritish uchun bir qator afzalliklar davri boshlandi. [2]

Ikki davlat o'rtasida oliy darajadagi siyosiy hamda davlat tashriflari 1993-yil may oyida O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimov tomonidan amalga oshirilgan. Ushbu tashrif chog'ida mamlakatlar o'rtasidagi savdo, iqtisodiyotga doir kelishuv imzolangan. Bu munosabatlar 1993-yilda Germaniya Federativ Respublikasining prezidenti R.Gerzogning tashrifi va kansler Genrix Shryoderning 2002-yildagi rasmiy tashriflari orqali yanada keng ko'lamga olib chiqishni boshlashgan.[3]. Bunday manfaatli rasmiy hamda davlat tashriflari hozirga qadar olib borilmoqda va ular natijasida 145 ta shartnomalar imzolangan bo'lib, shundan 92 tasi davlatlar va hukumatlararo, 20 tasi idoralararo hamda 33 ta boshqa xususiyatlarga ega shartnomalar imzolanganini muvaffaqiyat natijasida ko'rish mumkin.

So'nggi yillarda oliy va hukumat darajasidagi tashriflar xususan, 2022-yil oktabr-noyabr oylarida Germaniya Tashqi ishlar vaziri Annalena Baerbokning tashrifi va tashqi siyosatni mustahkamlash va ikki tomonlama munosabatlar bo'yicha bo'lib o'tgan konsultatsiyalar, 2024-yil aprel oyidagi sog'liqni saqlash delegatsiyasining Germaniyaga ishchi tashrifi va buning natijasidagi tibbiy hamkorlik va tibbiy forum doirasidagi ko'ptomonlama loyihalar imzolandi.[4] Bu esa shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda O'zbekiston va Germaniyaning aloqalari har tomonlama izchil rivojlanayotganligi hamda jahon hamjamiyatida ko'pgina mamlakatlar bilan faol tashqi siyosat olib borayotganligini belgilaydi.

O'zaro manfaatli munosabatlar natijasida ikki davlat o'rtasida iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy hamda ta'lim sohasida hamkorlik bosqichlari yangi pog'onaga ko'tarilmoqda. Germaniya - O'zbekistonning Yevropa Ittifoqidagi yetakchi iqtisodiy hamkorlaridan biri hisoblaniladi. Xususan, iqtisodiy aloqalar borasida so'nggi o'n yillikda katta ahamiyatga molik dasturlar amalga oshirildi. 2000-yilda o'zaro savdo hajmi taxminan 291,9 mln AQSH dollarini tashkil etdi. [5] O'zbekistondan Germaniyaga turli xil tovarlar, jumladan mis, paxta tolasi va ulardan tayyorlangan buyum, xomashyolar, rangli metallar yetkazib berilgan. Shu o'rinda Germaniyadan esa O'zbekistonga asbob - uskunalar, kimyoviy mahsulotlar, qora metall va undan yasalgan buyumlar transport vositalari va boshqa iqtisodiyotda ahamiyatli hisoblaniladigan buyumlar yuborilgan. Ikki mamlakat o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning eng ahamiyatli jihati shundaki, O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi huzurida "Daimler Benz", "Tissen", "Salamander" kabi jahonda mashhur hisoblangan 40 ga yaqin firma hamda korxonalar rasmiylashtirilgan. Bu esa ikki mamlakatning iqtisodiy aloqalari yaxshi rivojlanishining ko'rsatkichidir.

Shuningdek, O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari qatorida ikkinchi eng ko'p sarmoya tikiladigan mamlakat hisoblanadi. Yurtimizda Konrad Adenauer, Hanns - Zaydel va Friedrich Ebert jamg'armalari faoliyat yuritib, nafaqat iqtisodiy balki ijtimoiy sohalaridagi loyihalar, korxonalar faoliyati hamda tashabbuslar uchun ko'maklashmoqda. Bunday vakolatxonalar tomonidan eng ko'zga tashlangan tashabbus sifatida Germaniya Federativ Respublikasining Orolbo'yi aholisiga jiddiy ekologik vaziyatlarda yordam berish va qo'llab quvvatlash maqsadida 700 ming dollar ajratish ko'zda tutilganini keltirish mumkin. Shuningdek, hukumat hamkorlarni va faol tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlamogda. 2021 - yilda Germaniyadan olingan investitsiyalar hajmi 1.1 milliard dollarni tashkil etdi va bu ko'rsatkichlar 2022 yilda sezilarli darajada oshdi. [6] Shu vaqtga qadar Germaniya va

O'zbekiston o'rtasida iqtisodiy hamkorlikka doir ellikka yaqin turli mqiyoqdagi shartnomalar imzolangan.

Shuningdek, davlat rahbari 2023-yil may va sentabr oylarida ikki marta rasmiy tashrif bilan Germaniyada bo'lib, Federal Prezident Frank-Valter Shtaynmayer hamda Kansler Olaf Shols va lider rahbarlari bilan muzokaralar o'tkazdi. Olaf Shols mamlakatimizga tashrifi yakunida qo'shma deklaratsiyani qabul qildi. Shu rasmiy tashrifda 8 ta ikki tomonlama hujjat imzolandi. [7] Ularning ichida "Yashil Markaziy Osiyo" tashabbusi doirasida suv resurslaridan barqaror foydalanish sohasida hamkorlik borasidagi deklaratsiya ham qabul qilangani, bugungi kundagi yashil ekologiya va suv bilan bog'liq muammolarda Germaniyaning tayyorligini bildiradi. Shuningdek, mehnat migratsiyasidagi sohasidagi aloqalar Germaniya bilan hamkorlikning istiqbolli yo'nalishiga, sog'liqni saqlash sohasidagi o'zaro manfaatli munosabatlar sezilarli darajada rivojlanib, yangi pog'onaga ko'tarilmoqda.

Bundan tashqari, 2024-2026 yillarga mo'ljallangan Texnologik sheriklik va sanoat kooperatsiyasi dasturi qabul qilindi, shuningdek, O'zbekiston va Germaniyaning yetakchi korxonalari darajasida bir qator bitim va shartnomalar tuzildi. Aloqalar mustahkamkamligi birgina iqtisodda emas balki madaniy-ijtimoiy tomonlama ham mustahkam hisoblaniladi. Hozirgi kunda besh mingga yaqin nemis millatiga mansub aholi tinch va totuvlikda O'zbekistonda istiqomat qiladi. Ularga o'z milliy an'analari, madaniyati borasida barcha qulayliklar va shart-sharoitlar yaratilgan. Ularga ko'rsatilgan bunday qulayliklar, O'zbekistonning bag'rikenglik, aloqalarga bo'lgan xurmat hamda o'zaro ishonchni ta'minlashga asoslangan diplomatik aloqalar yurtishini ochib beradi.

Shuningdek, Toshkent, Berlin, Buxoro, Bonn shaharlari o'rtasida birodarlik aloqalari rivojlanishiga ko'mak sifatida samarali tarzda ma'daniy - ma'rifiy almashinuvlar, rivojlanish istiqbollari doir loyihalar amalga oshirilmoqda. Germaniyaning Berlin, Bonn va undan tashqari bir necha yirik shaharlarida O'zbekistonning musiqa, teatr san'ati keng namoyish etildi. Tyubing, Berlin, Kotbus, Myulxaymda o'tkazilgan festivallarda esa o'zbek teatr va kino yulduzlari faol ishtirok etishdi va nemis kino ijodkorlari bilan qizg'in va manfaatli suhbat hamda fikrlarini almashishdi. o'z navbatida O'zbekistonda ham Germaniyaning madaniyati kunlari Samarqand, poytaxt Toshkentda muvaffaqiyatli o'tkazilgan.

Ta'lim sohasida ham diplomatik o'rnatilgandan buyon salmoqli ishlar amalga oshirilgan. O'zbekistonda Germaniya va uning madaniyati, tili, ta'lim doirasida olib boradigan faol dasturlari uchun katta qiziqish mavjud va ta'kidlash joizki, taxminan 300 ming maktab o'quvchilari va undan tashqari oliy ta'lim talabalari tomonidan Gyote, Shriller, Kant va badiiy nemis tillari o'rganilmoqda. Yurtimizning bir qator shaharlarida va poytaxt Toshkent maktablarida nemis tili chuqurlashtirilgan tarzda ham o'rgatilmqda. Xususan, Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Andijon, Marg'ilon shahrilaridagi 6 ta maktablar nemis tili diplomini berish huquqi mavjud. Bundan tashqari, O'zbekistonlik magistr, doktorant va aspirantlar Germaniyaning turli universitetlarida tahsil olmqda va o'z sohalarida turli tajriba va amaliyot o'tashmqda. o'zbekistonda nemis universitetlarida o'qish istagini bildirganlar uchun esa Gyote instituti, Germaniya Xalq universitetlarining Xalqaro hamkorlik instituti samarali tarzda faoliyati tashkil etib kelinmoqda.

Germaniyada esa O'zbekiston bilan olib borilayotgan ikki tomonlama munosabatlar doirasida, Vatanimizning tarixiy merosi, boy madaniyatiga qiziqishi ortib bormoqda. Bunga misol sifatida, Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2023- yil may oyida Germaniyaga tashrifi

chog'ida Berlindagi Jeyms Simon galareyasida tashkil etilgan "O'zbekiston arxeologik xazinalari-Aleksandr Makedoniyskiydan Kushonlar davrigacha" nomli ko'rgazmasining ochilishida ishtirok etdi. Bu orqali jamoatchilikka O'zbekistonning boy madaniyati, qadimdan shakllangan sharqona urf-odati ochib berilib, bu o'z navbatida turizmga va qadimiy shaharlar bo'lmish Samarqand, Buxoro, Xorazmning ahamiyatini oshirishga qaratildi. Bunday madaniy tashabbuslar hozirgacha ko'p tashkil etilib kelinayotgani e'tiborga molik hisoblaniladi. Shuningdek, davlatimiz rahbari Germaniyaning milliy barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim hamkorlarimizdan biri sifatida ko'rishini aytadi. [8]

Yuqoridagi ma'lumotlardan xulosa qilinadiki, O'zbekiston Respublikasi va Germaniya Federativ Respublikasi bilan aloqalari yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Ikki tomonlama munosabatlar nafaqat siyosiy va iqtisodiy taraflama shuningdek, madaniy hamda hamkorlik doirasida tashabbuslarni amalga oshirishda ham izchil rivojlanmoqda. O'zbekistonning tutayotgan o'rnini jahon hamjamiyatida ortib borayotgani Markaziy Yevropa ayniqsa, Germaniyaning hamkorlik va diplomatik tomonlama qiziqishi ortib borayotgani buning yorqin dalilidir. Hozirga kelib ikki davlat o'rtasida imzolangan shartnomalar va yo'lga qo'yilgan loyiha hamda tashabbuslar tashqi faol siyosat hamda diplomatiya olib borish usullarining yangi pog'onasi orqali amalga oshirilmoqda. Kelgusida ham hukumatlar orasida yanada ishonchga asoslangan, turli sohalaridagi manfaatli hamkorlik hamda faol diplomatik munosabatlarni davom ettirish uchun hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Germaniya bilan siyosiy, iqtisodiy sohalarida doimiy muloqotni yo'lga qo'yib, ilmiy va texnologik hamkorlikni rivojlantirish va xalqaro maydonda o'zaro manfaatlarni ilgari surish istiqbollari ko'rib chiqilmoqda.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston-Germaniya: tajriba va rivojlanish istiqbollari
<https://isrs.uz/oz/maqolalar/prezidenta-respubliki-uzbekistan-savkata-mirzиеeva-v-federativnuu-respubliku-germania-sostoalos-intervu>
2. O'zbekistonning Bondagi elchixonasi ochilishi tasdiqlandi <https://lex.uz/docs/-891081>
3. <https://gk-usbekistan.de/uz>
4. <https://ims.uniklinik-freiburg.de/en/about-us/information/news/30th-of-april-the-medical-center-university-of-freiburg-participated-in-the-second-german-uzbek-health-forum-in-berlin>
5. <https://dunyo.info/en/ekonomika/v-yanvare%E2%80%93avguste-2025-goda-vneshnetorgovyy-oborot-uzbekistana-prevysil-51-milliard-dollarov>
6. <https://uzbekistan.un.org/en/212389-germany-continues-address-climate-change>
7. <https://president.uz/en/lists/view/>
8. Shavkat Mirziyoyev. O'zbekiston va Germaniya: O'zaro ishonchga asoslangan yuksak darajadagi muloqot. Tanlangan asarlar. Toshkent, O'zbekiston nashriyoti. 2019 y. III jild, 311-314 bb.